

Kutubxona-axborot faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘limi muassasalarining bakalavriat ta‘limi yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha savollar bazasi

I. Kutubxona-axborot markazlarida o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohoyati va ahamiyatini tushunish.

1. Bugungi kunda axborot-kutubxona sohasiga doir qanday me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud?
2. Mamlakatimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirmoqda?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yilning 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qaroriga asoslanib, sohada qanday islohatlar o‘tkazila boshlandi?
4. Axborot-kutubxona markazlaridan foydalanuvchilarga qanday pulli xizmatlarni yo‘lga qo‘yilmoqda?
5. Qaysi kutubxona O‘zbekistondagi eng yirik kutubxona, kutubxonashunoslik va bibliografiya bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-uslubiy markazi hisoblanadi?
6. Bugungi kun axborot-kutubxona xodimi qanday salohiyatga ega bo‘lishi kerak?
7. Sizningcha kutubxonachining imidji qanday bo‘lish kerak?
8. Alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan kitobxonlar haqida qanday fikr bildirasiz, ularga qanday imkoniyatlar yaratilmoqda?
9. Bugungi kunda kutubxonalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan qanday foydalanilmoqda?
10. Axborot-kutubxonalar muassasalarini xalqaro amaliyotga moslashtirib Avtomatlashtirilgan kutubxonalar bilan elektron kutubxonalar tashkil etildi, ularning farqi nimada?
11. Yosh avlodning ma‘naviy-intelektual salohiyatini oshirishda kitobning o‘rni qanday?
12. Kitob inson ma‘naviyatining asl targ‘ibotchisi hisoblanadi, siz buni qanday izohlaysiz?
13. Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha axborot-kutubxona markazlarida foydalanuvchilar uchun qanday sharoitlar yaratilgan?
14. Internetning qanday afzalligi, qanday muammolari bor?
15. Axborotlar oqimining tobora kuchayib borayotgan hozirgi kunda yoshlarni keraksiz va ularning ongi hamda ruhiga ta‘sir qiladigan axborotlar ko‘payib ketgan, siz ularni keraksiz axborotlardan qanday himoya qilasiz?
16. Xalq ta‘limi tasarrufidagi maktab kutubxonalarida bugungi kunda qanday ishlar olib borilmoqda?

17. Yoshlarni kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida respublikamizda qanday tanlovlar, shou va boshqa loyihalar amalga oshirilmoda?
18. Yurtimizda Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 12- yanvardagi Farmoyishi hamda 13- sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori asosida qanday ishlar amalga oshirildi?
19. Kitobxonlik bugun barchaning diqqat markazidagi masalalardan biriga aylangan vaqtda oilaviy kitobxonlikni siz qanday targ‘ib qilasiz? Oilada bolani kitobga qiziqtirishning qanday usullaridan foydalanasiz?
20. Bugungi kunda sizningcha kutubxonachilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish kurslarining ahvoli qanday? Ular qanday usullarda o‘qitilmoqda?
21. Zamonaviy o‘qitish usullarining innovatsion shakllari asosida multimedia vositalari yordamida o‘qitish hamda masofaviy ta’lim haqida qanday tushunchaga egasiz?
22. “2019-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Bundan qanday maqsadlar ko‘zlangan?
23. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus qachon, nima uchun qabul qilingan?
24. Beshta muhim tashabbusning nechanchi bandi kitobxonlikka bag‘ishlangan?
25. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirish hamda kutubxonaga jalb qilish maqsadida mamlakatimizdagi barcha AKMlarda turli aksiyalar, loyihalar, tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda, siz ham biror tanlov yoki aksiyada qatnashdingizmi?
26. Axborot-kutubxona muassasalarida qanday davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan tadbirlar o‘tkazib boriladi?
27. Sizningcha, Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish uchun yana qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
28. Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhiga (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ko‘p bolali oilalar va boshqalar) hozirgi kunda axborot-kutubxona muassasalari qanday e’tibor qaratmoqda?
29. Hozirgi kunda axborot-kutubxona muassasalariga yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi jarayonlari qanday ahvolda?
30. O‘zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyatining rivoji uchun qanday qonunchilik va me’yoriy – huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan?
31. Bugungi kunda Aholining elektron axborot resurslardan foydalanish imkoniyatini qanday?

32. Axborot madaniyatini shakllantirish deganda nimani tushunasiz?
33. Respublikamizdagi barcha AKMlar bugungi kunda xalqaro amaliyotga moslashtirilmoqda, buni siz qanday izohlaysiz?
34. Hozirgi kunda Respublikamizning barcha AKM larida Internet tarmog'ida sifatli axborot manbalaridan foydalanishlari uchun qanday imkoniyatini yaratilgan?
35. Hukumatimiz tomonidan ko'p yillar xizmat ko'rsatgan soha hodimlarining rag'batlantirish ishlari qanday amalga oshirilmoqda?
36. Mamlakatimizdagi eng yirik va metodik markaz qaysi kutubxona hisoblanadi?
37. Mamlakatimizdagi kitobxonlar o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan "Kitobxon shou" tanloviga sizni munosabatingiz?
38. Yutuq bor joyda kamchilik ham muammo ham bo'ladi, sizningcha axborot-kutubxona muassasalaridagi muammolar nimalardan iborat?
39. Mamlakatimizda bugungi kunda yosh kitobsevarlarni munosib rag'batlantirib kelinmoqda bunga sizning munosabatingiz qanday?
40. "Ma'naviyat karvonlari" nima uchun tashkil etildi, ular qanday maqsadlarni amalga oshirib kelmoqda?
41. Kutubxona faoliyatiga zamonaviy yondashuv deganda nimani tushunasiz?
42. Ko'pgina AKM lar qoshida "Mehr kutubxonasi" tashkil etilmoqda, ularning maqsadi qanday kitobxonalarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan?
43. Yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan buyruqlar asosida "Kitobxonlik haftasi" doirasida qator tadbirlar dasturlari ishlab chiqilmoqda, siz ham ularda ishtirok etganmisiz, jaroyonlar haqida fikringiz qanday?
44. "Yoshlar- kelajak poydevori" degan fikrga sizning munosabatingiz qanday?
45. Aytingchi, sizningcha Axborot-kutubxona xodimi mamlakatda o'tkazilayotgan siyosiy jaroyonlarning (saylovlar, huquqiy-savodxonlik kunlari, siyosiy o'qishlar, referendumlar) faol ishtirokchisi bo'lishi kerakmi?
46. Sizning fikringizcha, "Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoniga kimlar sazovor bolishi kerak?
47. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish uchun bugungi kunda hukumatimiz ko'magida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
48. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarga qanday e'tibor qaratilmoqda?
49. Axborot-kutubxona xizmati insonparvarlik yo'nalishlariga alohida ahamiyat beruvchi bo'lgan munosabatlarini shakllantirib boruvchi, shaxs qadr-qimmatining oshirib boruvchi, jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy o'zgarishlar bilan hamnafas faoliyat olib boruvchi faoliyatdir. Siz mana shunday mas'uliyatli kasbning munosib egasi bo'la olasizmi?
50. O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi haqida nimalarni bilasiz?

51. O'zbekistonning o'ziga xos yo'li deganda nimani tushunasiz?
52. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor haqida gapirib bering.

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Bugungi kunda kutubxonachilik kasbi yuksak ma'naviyatli komil insonni shakllantirish, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot sohasidagi ulkan o'zgarishlarga daxldorligi hissini tarbiyalash orqali o'z nufuzga ega bo'lmoqda, siz ham bu kasbga munosib bo'la olasizmi?
2. Bu kasbni tanlashdan maqsadingiz nima?
3. Nima uchun aynan shu sohani tanladingiz?
4. Kimlarni havas qilib bu kasbga ko'ngil qo'ydingiz?
5. Bu kasb egalari hammadan ko'ra bilimli xodimlar hisoblanadi, siz buni qanday izohlaysiz?
6. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, qanday insonlar podishohlarning kutubxonalarini boshqarganlar?
7. Ba'zi ota-onalar bu kasbni tinch deb o'ylab farzandini shu sohada o'qitmoqchi bo'ladilar, sizning ota-onangiz qanday fikrda?
8. Bu kasbni egallagan soha egalari barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladilar, buning uchun qanday darajada bilimli bo'lishlari kerak?
9. Sizningcha, foydalanuvchilar mutolaa madaniyatini shakllantirish, ularni kitobxonlikka qiziqtirishning jamiyatdagi ahamiyati nimada?
10. Kitob o'qish kimlar uchun juda zarur?
11. Qanday insonlar kitobni buyuk kashfiyot deb biladilar?
12. Kitobni nima uchun donishmandlar "sirli sandiqqa" qiyoslashganlar?
13. So'nggi paytlarda axborot-kutubxona xodimlarining zamonaviy texnologiyalarni bilish va bajarish darajasi juda yuqorilab bormoqda bunga nima sabab?
14. Mamlakatimiz rahbari nima uchun bugun kitobxonlik va kutubxonalarga e'tiborini qaratib, bu sohani yuqori darajaga ko'tarishni ilagari surmoqdalar?
15. Siz shu kasbning vakili sifatida, kitobxon yoshlarning erishayotgan marralarini ko'rib turib, bunda sizning ham hissangiz borligini his etib g'ururlanasizmi?
16. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan soha xodimlarini qo'llab-quvvatlab, yuksak unvonlarni berilishi nimaning evaziga deb o'ylaysiz?
17. Soha xodimlarini rag'batlantirib berilayotgan "Kutubxona a'lochisi" unvoni sizda minnatdorlik, faxr tuyg'usini uyg'otdimi?
18. Bunday yuksak unvonga kimlar munosib ekanligini e'tirof eta olasizmi?

19. Siz bugungi kunda mamlakatimizda juda katta nufuzga ega bo'lgan, zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan jihozlangan, poytaxtdagi kutubxonalarda ishlashni orzu qilasizmi yoki qayerda bo'lsa ham o'z salohiyatingizni ko'rsatib, barkamol avlodni tarbiyalashga munosib xissa qo'shishni xoxlaysizmi?
20. Siz qanday axborot-kutubxona markazlarida ishlashni orzu qilasiz?
21. Agar, sizga imkoniyat berilsa, o'z ish joyingizda qanday tartib intizom, boshqaruvni yo'lga qo'ygan bo'lar edingiz?
22. Kutubxonalardan foydalanish qoidalarini o'rgatish uchun maktabda boshlang'ich sinfdan "Yosh kitobxon" nomli qo'shimcha mashg'ulotlar o'tilishini xohlarmidingiz?
23. Kutubxonachi-ziyo tarqatuvchisi, bunday kasbda maxsus yoki oliy ta'lim darajasini egallamagan xodim ishlashi mumkunmi, siz bunga qanday fikr bildirasiz?
24. Kutubxonachilik kasbi juda mas'uliyatli kasb, siz buni qanday izohlaysiz?
25. Axborot-kutubxona muassasa rahbari bugungi kunda tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkilotchisi bo'lib kelmoqda, bunga sizning munosabatingiz?
26. Bo'sh vaqtini kutubxonada o'tkazishga odatlangan inson huddi har kuni jahonning eng donishmand kishilari bilan muloqotda bo'lganday his qilarkan o'zini, siz bunga qanday fikr bildirasiz?
27. "Kitoblar bizni yaxshi jamiyat sari yetaklaydi, bizni barcha zamonlarning buyuk egalari bilan tanishtiradi"- bu fikrlarni fidoiy kutubxonachiga nisbatan ham aytishimiz mumkunmi?
28. Tasavvur qiling, siz kelajakda kutubxonachilik kasbni egallab, biror yo'ldan adashgan yoki hayotda o'z o'rnini topa olmayotgan shaxsni kasbingiz tufayli to'g'ri yo'lga sola olsangiz, o'zingizda qanday hislarni tuyasiz?
29. "Odamning qanday odamligini hamisha u o'qiydigan kitoblardan bilish mumkun" degan fikrni siz qanday izohlaysiz?
30. Bu sohaning fidoiy-kutubxonachilari ishlash jaroyonida ba'zi kitobxonlarni huddi psixologlarga o'xshab ruhiyatini davolashga harakat qiladilar, buni qanday uddalaydilar?
31. Siz foydalanuvchilar qiziqishining yanada rivojlantirish uchun qanday interfaol o'yinlarni qo'llagan bo'lar edingiz?
32. Kitob bu –oftob, siz har bir murg'ak qalbga bu nurni qanday olib kira olasiz?
33. Kitoblar faqatgina kutubxonada emas, balki bu-har bir xonadonda bolish kerak,-degan g'oyani siz bugungi yosh ota-onalarga qanday singdirgan bo'lar edingiz?

34. Yosh kitobxonlarning Internet ma'lumotlarini qanday bo'lsa shundayligicha ko'chirib olish mumkun emasligini tushuntirishni siz qanday uddalaysiz?
35. Kitob o'qish jaroyonida bolaning ma'naviy dunyosi boyib boradi, nutqi o'sadi, qalbida go'zallik, insoniylik fazilatlari shakllanadi,- degan fikrlarga sizning munosabatingiz?
36. Yoshlarning badiiy estetik tafakkuri nafaqat ta'lim jaroyonida, balki kitob mutolaasi orqali ham shakllanadi, siz bunga qanday qaraysiz?
37. So'nggi paytlarda yoshlarning kitob o'qimay qo'yishiga, aksariyat vaqtini televizor, kompyuter oldida o'tkazayotganliklariga sabab nimada, siz ularga kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish uchun qanday motivatsiya berasiz?
38. Ommaviy kitob o'qish ishlarini tashkillashning qanday usullarini joriy etasiz?
39. Yurtimizdagi kutubxonalarni eng rivojlangan horijiy davlatlar kutubxonalariga tenglashtirish uchun yana nimalarga e'tiborni qaratish lozim, nima deb o'ylaysiz?
40. Axborot-kutubxona muassasalari qoshida tashkil etilayotgan pulli to'garaklar haqida fikringiz qanday?
41. Kutubxona-ilm, ziyo tarqatuvchi maskan hamda intellektual salohiyatlar manbai, siz bunga qanday fikr bildirasiz?
42. Siz, kutubxona fondlarini muntazam boyitib borishning qanday yo'llarini bilasiz?
43. O'lkamiz tarixini o'rganishda kutubxonalar qanchalik muhim?
44. Yosh kitobxonlarga motivatsiya berish, kitob o'qishga qiziqtirish uchun kutubxonada fahriy (katta yoshli kitobxon) kitobxonlar bilan uchrashuvlarini, suhbatlar tashkil etib borish kerak degan fikrga qanday qaraysiz?
45. "Yaxshi kasbni egallash insonni oliy martaba va yuksak darajaga yetkazuvchidir", ushbu fikrni siz qanday izohlaysiz?
46. Siz egallamoqchi bo'lgan kasbingizdan fahrlanasizmi?
47. Eng yaxshi axborot-kutubxona muassasa rahbari bo'lish imkoniyatingiz bo'lsa o'zingizda qanday salohiyatni shakllantirishingiz kerak?
48. AKM xodimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
49. Agar foydalanuvchi sizdan o'z huquqlarini talab qilsa unga qanday munosabat bildirasiz?
50. Bugungi kun axborot-kutubxona muassasa xodimi bemalol informatika o'qituvchisi bilan raqobatdosh bo'la oladigan salohiyatga ega bo'lmoqda, bunga siz qanday fikr bildir olasiz?
51. "Bitta kitob o'qiydigan bola o'nta televizor ko'radigan bolani boshqaradi" degan fikrni siz qanday izohlaysiz?

52. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida bosh g‘oya sifatida qanday maqsad maydonga chiqmoqda?
53. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar haqida gapirib bering.

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va iqtidorlilik qobiliyati)

1. Jamoatchilik fikrining oilaviy xayot va yoshlar tarbiyasiga ta’siri qanday?
2. Ota- ona ibrati - farzandlar ziynatidir degan naqlga qanday qaraysiz?
3. Rasul Xamzatov “Men ko‘p kitoblar o‘qiganman, ammo eng yaxshi kitob ota donishmandligidir” degan tushunchaga qanday qaraysiz?
4. Farzandlik burchi - ma’naviy ma’suliyat ekanligini tushuntiring.
5. Oilada yoshlarni milliy g‘urur asosida tarbiyalash deganda nimani tushinasiz?
6. Kutubxonachining muhim sifatlari qanday bo‘lishi kerak?
7. Kutubxonachi muloqotidagi his – tuyg‘ular qanday bo‘lishi kerak?
8. Kutubxonachining kasbiy etikasi me’yorlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Shaxsiy qaror qabul qilish va uni bajarishda qanday jarayonlar amalga oshiriladi?
10. Kutubxonachi -tashkilot oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qanday erishadi?
11. Rahbar– odamlarni nimalarini qo‘llagan xolda maqsadiga erishadi?
12. Kutubxona rahbari ma’lum maqsadlarga erishish yo‘lida xodimlarni qanday boshqarishni tashkil qiladi va tartibga soladi?.
13. Kutubxonachi korxonada qanday vazifalarni bajaradi?
14. Kutubxona-axbrort faoliyatida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish qanday?
15. Ota-ona mehri ma’naviy kadriyatdir, buni izohlab bering.
16. “Kutubxona ma’naviyat va ma’rifat maskani” jumlasini kengroq izohlang?
17. Ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi nima?
18. Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash vositalari qanday?
19. Kutubxonachining shaxsiy mehnati qanday tashkil qilinadi?
20. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish nima?
21. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish qanday masalalarni xal etadi?
22. Kutubxona- axborot muassasalarining sanitariya-gigienik xolati deganda nimani tushunasiz?
23. Adabiyotchilar – inson ruhiyatining muhandislari sizdir, bunga nima deysiz?
24. Manaviy qadriyatlarning tiklanishi izohlang?

25. Jamiyatning ma'naviy sog'lomlashuv jarayonida elektron matbuotning ahamiyati haqida ma'lumot bering.
26. Milliy qadriyatlar. Qadriyat atamasini ta'riflang.
27. Axborot- kutubxona markazlarida qanday bo'limlar mavjud?
28. Kompleks bo'limlar nima va unga qanday bo'limlar kiradi?
29. Ma'muriy-xo'jalik bo'limlariga qanday bo'limlar kiradi?
30. O'smir-yoshlar mutolaa madaniyatini shakllantirishda ularning qiziqishlari va ixtisoslashuvlarining ahamiyati bormi?
31. Islohotlar va ularning ma'naviy mezonini nima?
32. Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirishda eng muxim muassasa, shubxasiz, kutubxonalardir. Ushbu maskanning ahamiyati haqida ma'lumot bering?
33. Sharq xalqlari yuksak madaniyatining namunalaridan biri "Avesto" kitobi haqida ma'lumot bering?
34. Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
35. O'smir-yoshlar mutolaasini tashkil qilishda ota-ona – o'qituvchi – AKM xodimi zanjiriga hojat bormi?
36. Mutolaa mohiyatiga ko'ra ixtiyoriy faoliyatdir, degan qoidani siz qanday izohlaysiz?
37. Shaxsning mutolaa madaniyatida faollik, ichki da'vat, ongli rag'bat singari xususiyatlar qanday ahamiyatga ega?
38. Mutolaa madaniyati bashariyat tarakkiyotining omili sifatida tushuncha bering?
39. Inson kamolotiga kanday omillar, jarayonlar va shart-sharoitlar ta'sir kursatadi?
40. "Kamil inson" goyasi, unga xos xususiyatlar, uni shakllantirish usullari va xokazolar haqida tushuncha bering?
41. ARM, AKM va kutubxonalar jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va tarkib toptirishda qanday o'rin tutadi?
42. Hozirda kitoblardan ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarni o'qishni afzal ko'ruvchilar sonining oshishi, detektiv adabiyotlarga qiziqishning ortishi kuzatilayotganini siz qanday izohlaysiz?
43. Odobning elementar shakllari oila muhitida shakllanishi haqida ma'lumot bering?
44. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda oila, ta'lim tizimi va madaniy-ma'rifiy muassasalar hamkorligiga o'z tumaningiz yoki shahringizdan namuna bo'larlik jonli misol keltira olasizmi?
45. Oilada farzandlar to'laqonli tarbiya ololmay, axloqan yetuk bo'lmasalar qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Shu haqida biroz fikr bering?
46. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi haqida so'zlang.
47. Kutubxonada axloqiy muloqot nima?
48. Kutubxonadagi muloqot mavzusi haqida tushuncha bering?

49. Kutubxonachi muloqot madaniyati va xulq – atvori qanday bo'lishi kerak?
50. Kutubxonachi kasbi- haqida ma'lumot bering?
51. Kutubxonachi muloqot madaniyati va xulq – atvori
52. Kutubxonachilik kasbi tashqi ko'rinishi va kiyinishi qanday bo'lishi kerak?
53. Notiqlik mahoratida, birinchi navbatda, kutubxonachi shaxsining o'ziga xosligi haqida ma'lumot bering?
54. Aniq mantiqiy fikrlash va psixologik ta'sir nima?
55. Inson qalbiga qanday yo'l topish mumkin?

IV. “Tanlangan bakalavriat sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.”

1. Axborot kutubxona markazlarida nechta bo'lim kitobxonlarga xizmat ko'rsatadi?
2. Fondlarni saqlash va butlash bo'imida qanday ishlar amalga oshiriladi?
3. O'quv zali bilan abonoment bo'limining xizmat ko'rsatish jaroyonida qanday farq bor?
4. Kutubxonaning kataloglari qanday turlarga bo'linadi?
5. Sistemali katalog bilan alfavit katalogining qanday farqi bor?
6. “Bibliografiya” so'zining ma'nosi nima, kutubxonada bibliograflar qanday vazifa bajaradilar?
7. Kitoblarga ilmiy va texnik ishlov berish jaroyonini so'zlab bering.
8. Kutubxonadan foydalanuvchilar - kimlar?
9. Yopiq fond bilan ochiq fondning farqini bilasizmi, ular qayerda joylashgan bo'ladi?
10. Maktab kutubxonasi bilan axborot-kutubxona markazidagi ishlash jaroyonlari qanday tashkil etiladi?
11. Axborot-kutubxona markazidan tashqarida tashkil etiladigan kutubxonalar qanday ataladi, unda ishlar qanday tashkil etiladi?
12. Alohida ehtiyojga loyiq bo'lgan (kekxa, nogiron, yosh bolalar, uy bekalari, vaqtincha ishsiz) foydalanuvchilarga qanday xizmat ko'rsatiladi?
13. Maktab kutubxonalaridagi darsliklarni ijaraga berish jaroyonlari qanday bajariladi, ular uchun qanday hujjatlar bilan ishlashni bilish zarur?
14. Kitobxonlarning o'qishiga rahbarlik qilish deganda nimanı tushunasiz?
15. Foydalanuvchilar bilan suhbatlarning qanday turlari mavjud?
16. Kutubxona uchun reklama kerakmi?

17. Reklamanig qanday turlari bor?
18. Zamonaviy axborot-kutubxona xodimi qanday bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim?
19. Maktabgacha ta'lim yoshidagi(2 yoshdan 7 yoshgacha) kitobxonlarga qanday xizmat ko'rsatiladi?
20. Maktab yoshidagi kichik (7 yoshdan 11-12 yoshgacha) kitobxonlarga qanday kitoblar tavsiya etiladi?
21. O'rta va katta yoshdagi(13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha) kitobxonlarga qanday kitoblarni tavsiya etish lozim?
22. Soha xodimi foydalanuvchining psixologiyasini bilishi qanchalik muhim?
23. Foydalanuvchi bilan yakka tartibdagi suhbat jaroyoni qanday olib boriladi?
24. Kitobxonlar bilan ommaviy suhbat jaroyoni ko'proq qachon tashkil etiladi?
25. Guruhli suhbat jaroyoni qanday tashkil etiladi?
26. Kitob ko'rgazmasi qancha muddatda, nima uchun tashkil etiladi?
27. Kitobxonlar konferensiyasini tashkil etish uchun qancha muddat kerak bo'ladi?
28. Kitobxon formulyari nima uchun to'ldiriladi?
29. Kutubxonada fondni saqlash uchun nimalarga e'tibor berish zarur?
30. Kutubxonada kitob fondi qanday joylashtiriladi? Tartibini aytib bering.
31. An'anaviy kutubxona bilan elektron kutubxonalarning farqi nimda?
32. Siz dunyodagi eng yirik kutubxonalar haqida bilasizmi?
33. Nima uchun bugungi kunda axborot-kutubxona markazlaridagi kitob fondlari UO'K (universal o'nli klassifikatsiya) asosida qayta ishlov berilib, joylashtirilmoqda?
34. So'z va nutq (Notiqlik) kutubxona xodimiga qanchalik kerak?
35. Siz kelajakda, kasbiy va umumiy faoliyatda egallaydigan bilimlaringizni ish faoliyatingizda qay darajada qo'llagan bo'lar edingiz?
36. Sizning fikringizcha, bugungi zamonaviy axborot-kutubxona markazining boshqaruvchisi qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim?
37. Kutubxonada kartatekalar nima uchun tuziladi?
38. Bugungi kunda foydalanuvchilarning kutubxonaga jalb etishning qanday usullari bor?
39. Bugungi kunda kutubxonaning, kitoblarning reklamasi uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
40. An'anaviy kutubxona kataloglaridan yangi texnologiyalar asosida yaratilgan elektron katalog tuzishning qanday farqi hamda ahamiyati bor?

41. Alfavit katalogi haqida qanday tushunchaga egasiz?
42. Sistemali kataloglar qanday tuziladi?
43. Kutubxonalarda predmet katalogi alfavit hamda sistemali katalogdan qanday farqlanadi, bu katalog qanday tuziladi?
44. Kutubxonadagi inventar daftar nima uchun yuritiladi?
45. Maktab kutubxonasida yuritiladigan hujjatlar hamda ularning hususiyatlarini aytib bering.
46. Maktab kutubxonalarida darsliklarni ijaraga berish uchun nega shartnoma tuziladi, bu hujjat kimlarning o'rtasida tuziladi?
47. Darsliklarni ishlatish muddati qanchaga beriladi va yo'qolganlik uchun qaday jarima belgilanadi?
48. Maktab kutubxonasida darslik va badiiy adabiyotlarni saqlash uchun qanday ishlar olib boriladi?
49. Yosh kitobxonlarni kitobxonlikka qiziqtirishning qanday usullri mavjud?
50. Oilaviy kitobxonlikni targ'ib qilish uchun siz ota-onalarga qanday maslahatlar bergan bo'lar edingiz?